

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)	JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)	G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)	LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)	BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)	A'ZAMOV A. (O'zbekiston)	KARIMOV N.F. (O'zbekiston)
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)	KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)	CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)	BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)	TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)
OTAJONOV S. (O'zbekiston)
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)
RASULOV R. (O'zbekiston)
ONARQULOV K. (O'zbekiston)
YULDASHEV G. (O'zbekiston)
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)
DADAYEV S. (O'zbekiston)
ASQAROV I. (O'zbekiston)
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)
YULDASHOV A. (O'zbekiston)
XOLIQOV S. (O'zbekiston)
MO'MINOV S. (O'zbekiston)
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)
ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)
SHUKUROV R. (O'zbekiston)

YULDASHEVA D. (O'zbekiston)
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)
KASIMOV A. (O'zbekiston)
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)
G'OFUROV A. (O'zbekiston)
ADHAMOV M. (O'zbekiston)
O'RINOV A.A. (O'zbekiston)
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)
USMONOV B. (O'zbekiston)
ASHIROV A. (O'zbekiston)
MAMATOV M. (O'zbekiston)
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)
XAKIMOV N. (O'zbekiston)
BARATOV M. (O'zbekiston)
ORIPOV A. (O'zbekiston)

Muharrir: Sheraliyeva J.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:
Qog'oz bichimi: - 60×84 1/8
Bosma tabog'i:
Ofset bosma: Ofset qog'oz.
Adadi: 10 nusxa
Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Farg'ona,
2022.

Aniq va tabiiy fanlar

MATEMATIKA

A.Urinov, D.Usmonov

Soxa chegarasida buziladigan parabolik tenglama uchun chegaraviy masalalar 6

Z.YusupovaImkoniyati cheklangan bolalar maktabining matematika darslarida o'quvchilar yo'l
qo'yadigan tipik xatoliklar va ularni bartaraf etish yo'llari 19

FIZIKA - TEXNIKA

M.Mirxolisov, X.Yunusov, A.Sarimsoqov

Natriy-karboksimetilsellyuloza eritmasida barqaror rux oksidi nanozarralari sintezi va xossalari 24

BIOLOGIY, TUPROQSHUNOSLIK

I.Zokirov, Sh.Yusupova, A.Yoqubov

Markaziy Farg'ona sabzavot-poliz agrotsenozlari entomofaglarining ekologik-faunistik tahlili 32

F.Xolboyev, F.Shodiyeva, Z.MirxonovaO'zbekistonda kurkunaklar (Merops) avlodining oziqa tarkibi va oshqozon
massasining o'zgaruvchanligi 38**G.Zokirova, Sh.Kamolov**Farg'ona vodiysi sharoitida oltinko'z (Chrysopidae: Chrysoperla) entomofagining
biologik xususiyatlari 43**F.Umurqulova, M.Ismoilova, B.Zokirov, Sh.Hasanov, J.Abduraxmanov**

Chimqo'rg'on va pachkamar suv omborlarining mikroflorasini tadqiq qilish 47

QISHLOQ HO'JALIGI

G'.Yuldashev, M.Isag'aliyev, A.Raximov, Z.Azimov

Sho'rlangan tuproqlar pedogeokimyosi va tadqiqot usullari 50

M.Raximov, X.MuydinovXorijdan keltirilgan qoramollar buqachalari ratsioniga mineral qo'shimchalar
kiritilishi samaradorligi 56

KIMYO

A.Maxsumov, A.Shodiyev, U.Azamatov, Y.Xolboyev

Bis-[(2,4,6-tribrom-fenoksi)-karbamat] hosilasini sintezi va uning xossalari 60

X.Saminov, A.Ibragimov, O.Nazarov*Punica granatum* o'simligi "qayum" navining kimyoviy elementlar tarkibini aniqlash 65**I.Asqarov, M.Khamdamova, Y.Xolboyev**

Makkajo'xori kepagi asosida tayyorlanadigan bioparchalanuvchan idishlar kimyoviy tarkibi 70

I.Asqarov, N.Razzakov

Zirk mevasi tarkibidagi tabiiy birikmalarning immunostimulyatorlik xossalari 75

X.Abdikunduzov, A.Ibragimov, O.Nazarov, I.Jalolov, E.AkbarovUzum (*Vitis vinifera*) o'simligi pinot noir navining bargi tarkibidagi flavonoidlarni
sifat va miqdor tarkibini aniqlash 78**I.Askarov, M.Muminjanov, N.Atakulova**

Tarvuz mevasining kimyoviy tarkibi va shifobaxsh xususiyatlari 82

I.Asqarov, O.AbdulloevO'zbekistonda o'sadigan bir yillik shuvoq o'simligidan (*Artemisia annua* L.) artemizininni ajratib
olishning takomillashtirilgan usuli 86**M.Bokiyev, I.Asqarov**

Yerqalampirning kimyoviy tarkibi va undan ayrim xastaliklarni davolashda foydalanish 90

Ijtimoiy-gumanitar fanlar

IQTISODIYOT

G. Xalmatjanova, A.G'ofurov

O'zbekistonda yer resurslaridan foydalanish usullari va samaradorligi 96

FALSAFA, SIYOSAT

B.Xolmatova

Xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish masalalarining innovatsion yechimlari 101

S.AbdunazarovMa'naviy-mafkuraviy mexanizmlarni amaliyotga joriy etishda kompleks
yondashuvning ahamiyati 106

MA'NAVIY-MAFKURAVIY MEKANIZMLARNI AMALIYOTGA JORIY ETISHDA KOMPLEKS YONDASHUVNING AHAMIYATI**ЗНАЧЕНИЕ КОМПЛЕКСНОГО ПОДХОДА К РЕАЛИЗАЦИИ ДУХОВНО-ИДЕОЛОГИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ****THE SIGNIFICANCE OF AN INTEGRATED APPROACH TO THE IMPLEMENTATION OF SPIRITUAL AND IDEOLOGICAL MECHANISMS****Abdunazarov Sobir Ibragimovich¹****¹Abdunazarov Sobir Ibragimovich**– *O'zbekiston milliy universiteti.***Annotatsiya**

Maqolada muallif O'zbekistonda ma'naviy-mafkuraviy mexanizmlarni amaliyotga joriy etishda kompleks yondashuvning ahamiyatini o'rgangan. Yoshlarni ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-mafkuraviy jihatdan rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar yoritilgan.

Tadqiqotda ob'ektivlik, tarixiylik, qiyosiy-tarixiy, tuzilmaviy, tuzilmaviy-funksional, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, hujjatlarni o'rganish, ma'lumotni qayta ishlash, guruhlash kabi sotsiologik usullardan foydalanildi.

Yoshlarga oid davlat siyosatini izchil va samarali amalga oshirishda kompleks yondashuvning ahamiyati quyidagilarda ko'rinadi. Yoshlar bilan ishlashda turli "bo'shliq"lar vujudga kelishining oldini oladi. Bunda jamiyat va davlatning o'zaro hamkorligi ta'minlanadi, ya'ni davlat yoshlarga o'z salohiyati va imkoniyatlaridan to'la foydalanishi uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratib berishi, yoshlar, o'z navbatida, muayyan ijtimoiy vazifalarni bajarishi lozim.

Аннотация

В данной статье автор исследует важность комплексного подхода к реализации духовно-мировоззренческих механизмов в Узбекистане. Освещен комплекс мер, направленных на общественно-политическое и духовно-идеологическое развитие молодежи.

В исследовании использовались такие социологические методы, как объективность, историчность, сравнительно-исторический, структурный, структурно-функциональный, анализ и синтез, индукция и дедукция, документоведение, обработка данных, группировка.

Важность комплексного подхода к последовательной и эффективной реализации государственной молодежной политики заключается в следующем. Предотвращает различные «пробелы» в работе с молодежью. Это обеспечит взаимодействие общества и государства, то есть государство должно создать соответствующие условия для того, чтобы молодежь могла в полной мере использовать свой потенциал и возможности, а молодежь, в свою очередь, должна выполнять определенные социальные функции.

Abstract

In this article, the author explores the importance of a comprehensive approach to the implementation of spiritual and ideological mechanisms in Uzbekistan. A set of measures aimed at socio-political and spiritual-ideological development of youth is covered.

The study used sociological methods such as objectivity, historicity, comparative-historical, structural, structural-functional, analysis and synthesis, induction and deduction, document study, data processing, and grouping.

The importance of a comprehensive approach to the consistent and effective implementation of state youth policy is as follows. Prevents various "gaps" in working with young people. This will ensure the interaction of society and the state, that is, the state must create appropriate conditions for young people to use their full potential and opportunities, and young people, in turn, must perform certain social functions.

Kalit so'zlar: yoshlar siyosati, ma'naviy-mafkuraviy mexanizm, kompleks yondashuv, jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy funksiyalar, kompleks tahlil, instrumental daraja, verbal-emotsional daraja.

Ключевые слова: молодежная политика, духовно-идеологический механизм, комплексный подход, социальное развитие, социальные функции, комплексный анализ, инструментальный уровень, вербально-эмоциональный уровень.

Keywords: youth policy, spiritual-ideological mechanism, complex approach, social development, social functions, complex analysis, instrumental level, verbal-emotional level.

KIRISH

Bizga ma'lumki ko'plab siyosiy, falsafiy va psixologik ilmiy adabiyotlarda yoshlar, yoshlarga oid davlat siyosati tushunchalariga bir qator ilmiy va amaliy ta'riflar berilgan. Shu ma'noda, mazkur tushunchaning mazmun-mohiyatini, konseptual jihatlarini tadqiq etish va uni ilmiy-nazariy jihatlarini ma'naviy-mafkuraviy mexanizmlar bilan qiyosiy tahlil qilgan holda ochib berish maqsadga muvofiq.

FALSAFA-SIYOSAT

Zero, bu orqali uning ko'lamini, asosiy yo'nalishlari, amalga oshirish mexanizmlari va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlab olish imkoniyati yaratiladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda yoshlarga oid davlat siyosatiga berilgan takliflar tahliliga e'tibor qaratsak. Jumladan, yoshlarga oid davlat siyosatini belgilashda xalqaro norma sifatida BMTning hujjatlari asosiy nazariy va huquqiy manba bo'lib xizmat qiladi. Shu ma'noda BMTning me'yoriy-huquqiy hujjatlarida yoshlarga oid davlat siyosati tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Yoshlarni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan davlat faoliyatining ajralmas qismi-bu yoshlar siyosati hisoblanadi". [1]

Demak, yoshlar siyosatini amalga oshirishda asosiy ko'zlangan maqsad yoshlarni ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-mafkuraviy jihatdan rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishdan iborat bo'lmog'i lozim.

Xuddi shu kabi ta'riflarni ayrim soha mutaxassisleri ham keltirib o'tgan. Xususan, "Yoshlar va ularning jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq g'oya va qarashlar tizimi [2], "Yoshlarning ijtimoiy institutlar bilan o'zaro harakatining murakkab, ilg'or va ko'p tarmoqli tizimidir" [3] kabi bir qator o'ziga xos yondashuvlar keltirib o'tilgan.

Shunga o'xshash ta'riflardan kelib chiqib, siyosiy fanlar doktori professor N.Jo'raev quyidagicha talqin qilgan: "Yoshlar siyosati tushunchasi davlat siyosatining rasmiy faoliyat turlaridan biriga aylangan vaqtdan boshlab, mazkur tushuncha ijtimoiy gumanitar fanlarda institutsionallasha boshladi. O'tgan asrning 90-yillar boshlaridan boshlab mazkur tushunchaning bugungi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan keng, tor va muassasaviy ma'nodagi talqinlari muhokama qilinib kelinmoqda. [4]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

"Yoshlarga oid siyosat – davlatning demokratik taraqqiyot yo'lida yoshlarni muhim strategik kuch sifatida tan olishi, zamonaviy dunyoda yoshlarning ehtiyojlari, manfaat va huquqlari to'liq ta'minlanishi va muhofaza etilishiga yo'naltirilgan huquqiy-tashkiliy dastur, vosita, chora va xatti-harakatlar yig'indisi hamda o'zining yoshlarga nisbatan boshqaruv va ijtimoiy funksiyalarini demokratik siyosiy tizim, xalqaro yoxud milliy huquq normalari talabi darajasida to'liq bajarishidir. Yosh avlod vakillarining manfaatini, boshqa qatlamlar vakillari manfaatiga qarshi qo'ymasdan, umummilliy manfaat bilan uyg'unlashtirish – yoshlar siyosatining asosiy vazifasidir.

Shunday ekan, yoshlarga oid davlat siyosatida davlat tomonidan yoshlarning mamlakat manfaatlari yo'lida erkin ijtimoiylashuvi va o'zini samarali namoyon etishi uchun maqbul sharoit va imkoniyat yaratish yo'lida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tizimi tushuniladi. Bu siyosat mohiyatan davlatni rivojlantirish, istiqbolda raqobatbardoshligini ta'minlash va milliy xavfsizligini mustahkamlashni ko'zda tutadi. [5]

Yuqorida keltirilgan mulohazalardan ko'rinib turibdiki, yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish hamda kompleks tahlil qilib borish borasida bir qancha yondashuvlar mavjud bo'lib, ularning aksariyatida mazkur siyosatning natijadorligiga qaratilgan.

Jumladan, yoshlar siyosatining natijadorligini ta'minlash quyidagi bir qator ijtimoiy-siyosiy omillarga bog'liq bo'ladi:

- ushbu siyosatning amaliyotga joriy etilish darajasi;
- uning jamoatchilik nazorati va hamkorligi uchun ochiqligi;
- jamoatchilik tomonidan yoshlar siyosati mohiyatining tushunilishi va qo'llab-quvvatlanishi;
- ilmiy-axborot ta'minotining yuqori darajadali;
- yoshlar siyosati bo'yicha chora-tadbirlarning uzluksiz ravishda amalga oshirilishi va boshqalar.

[6]

Keltirgan argumentlarimizdan ko'rinib turibdiki, yoshlarga resurs sifatidagi yondashuvga asoslangan siyosat – bu o'z huquqlari, qobiliyatlariga ega to'laqonli fuqarolar sifatida qadrlash va ularning imkoniyatlarini yanada kengroq namoyon etish uchun sharoitlar yaratishdan iboratdir.

Ushbu yondashuv ularning mustaqil mehnat va ijod qilishini rag'batlantiradi hamda tanqidiy-tahliliy mushohadasini kuchaytiradi, jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qilishga undaydi. Bunday siyosat hamma yoshlarga maqsadli guruhlar sifatida qarashni taqozo etadi. [7]

NATIJALAR VA MUHOKAMA

"Yoshlar siyosati" tushunchasiga yuqorida berilgan turli ta'rif va yondashuvlar tahlili uni davlat siyosatining ajralmas qismi ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, bunda davlatning yoshlarni muhim strategik resurs ekanligini e'tirof etishi, ularga zarur sharoit va imkoniyatlar yaratib berish kabi masalalarni qamrab olishi e'tirof etiladi. Shu bilan birga, yoshlarga oid davlat siyosati o'zining kompleks tavsifga ega ekanligi bilan ham ajralib turadi. Zero, u bir vaqtning o'zida ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-mafkuraviy sohalarga oid masalalarni qamrab oladi.

Yoshlar siyosatining konseptual asoslarini ishlab chiqishda ushbu siyosatning ob'ekt va sub'ektlarini aniqlash va ular o'rtasidagi munosabatlarni tizimlashtirish muhim.

Bu borada ayrim mutaxassislar yoshlar siyosatining ob'ekti sifatida ijtimoiy ehtiyojlari yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish doirasida qo'llaniladigan chora-tadbirlar va dasturlar orqali qondiriladigan turli yoshlar guruhlari va harakatlari, yoshlar tashkilotlari hamda alohida yosh insonlarni ko'rsatishadi. [8]

O'zbekistonda "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonunga muvofiq 8 davlat organi hamda nodavlat notijorat tashkilotlari yoshlarga oid davlat siyosatining sub'ektlari hisoblanadi.

Shuningdek, davlat hokimiyati organlari, yoshlar tashkilotlari, bundan tashqari, yoshlarning ta'lim olishi, tarbiyasi, munosib turmush kechirishi uchun muayyan sharoit yaratish bilan shug'ullanuvchi o'zini-o'zi boshqarish organlari, ish beruvchilar, jamoat birlashmalari, yuridik va jismoniy shaxslar hamda yoshlarning o'zlari ham yoshlarga oid davlat siyosatining sub'ekti hisoblanadi. [9]

Shu ma'noda, yoshlarning mamlakatdagi demokratik siyosiy institutlar faoliyatida ishtirok etishi muhim ahamiyatga ega. Zero, buning natijasida yoshlarda demokratik qadriyatlar, siyosiy madaniyat shakllanadi.

Huquqiy, demokratik, rivojlangan fuqarolik jamiyati qurayotgan mustaqil O'zbekiston oldida turgan g'oyaviy va siyosiy vazifalardan biri siyosiy jarayonlarda fuqarolarning siyosiy ishtirokini strategik jihatdan ta'minlash hisoblanadi. Ma'lumki, demokratik jamiyatning muhim mezonlaridan biri fuqarolarning siyosiy jarayonlardagi ishtirokining ta'minlanishidir. Bunda ularning u yoki bu siyosiy rollarni bajarishga xohishi va qobiliyatini hisobga olish muhimdir". [10]

Bundan ko'rinib turibdiki, jamiyatning siyosiy hayotida ham yoshlarning ishtiroki muhim hisoblanadi. Xususan, yoshlarning jamiyatdagi o'rni va roli, shaxsiy ijtimoiy ahvoli va uni amalga oshirishda anglangan xususiyatlarida aks etuvchi guruhviy manfaatlarini birlashuvining asosiy shakli sifatida belgilanadi. [11]

Bizningcha bu fikrda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy omillarning ta'sirida yoshlarning ayni holatda o'zini anglashini nazarda tutadi. Jamiyatning siyosiy hayotida faolligini namoyon etish darajasiga ko'ra, siyosiy ishtirokni "real" va "formal", ya'ni faqat rasmiy shaklga ega bo'lgan turlarga ajratadi. Yoshlarning real siyosiy ishtiroki o'z siyosiy huquqlarini turli usul va shakllarda ifodalashida kuzatiladi. Buning aksi esa rasmiy shakldagi siyosiy ishtirok hisoblanadi. Bu turli siyosiy jarayonlarda faqatgina ishtirok bilan cheklanish, elektoral passivlik va o'zining shaxsiy pozitsiyasini bildirmaslik kabi holatlar bilan izohlanadi.

Shuningdek, yoshlarning jamiyat siyosiy hayotidagi ishtirokini kengaytirishni instrumental va verbal-emotsional darajaga ajratish mumkin.

Instrumental daraja - bu yoshlarning o'z manfaatlarini himoya qilishda nafaqat mahalliy, balki mamlakatning siyosiy hayotida bevosita faol fuqaro sifatida ishtirok etishini anglatadi. Bu daraja fuqaroning elektoral faolligini, ya'ni mahalliy o'zini o'zi boshqaruv organlari, siyosiy partiyalar va ijtimoiy tashkilotlar faoliyatida ishtirokini taqozo etadi.

Verbal-emotsional daraja esa mamlakatda kechayotgan siyosiy jarayonlarga sub'ektning qisman o'z manfaatlarini darajasida ishtirok etishi yoki aksincha jamiyat ijtimoiy hayotidan yiroqda bo'lishi bilan xarakterlanadi. [12]

Ushbu yondashuvlarning barchasida yoshlar masalasi nazariy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham ma'naviy-mafkuraviy mexanizmlarni qo'llashning kompleks xarakterga ega ekanligi ko'rsatadi. Vaholangki, aynan shunday yondashuv yoshlar bilan ishlashning yaxlit kompleks tizimini yaratishga imkon berdi.

Ayni vaqtda, kompleks va tizimli yondashuv ilmiy bilimlarning integratsiyalovchi shakllari hisoblanadi. Boshqacha aytganda, kompleks yondashuv deganda asosan, muayyan masalani har tomonlama, jumladan, unga aloqadorlik va kesishuvchanlik nuqtai nazaridan boshqa tarmoq va yo'nalishlarni ham tadqiq etishni nazarda tutadi. Shu nuqtai nazardan, bu borada nazariy va amaliy jihatlarni umimlashtirish muhim ahamiyatga ega. Aynan kompleks yondashuv muayyan davrda muammoning kelib chiqishini o'rganishni, joriy holatini aniqlashni va yaqin kelajakdagi o'zgarishini prognozlash imkonini yaratadi. Shu bilan birga, kompleks yondashuv turli uslublarni bir vaqtning o'zida qo'llashi bilan farqlanadi.

Shu nuqtai nazardan, mutaxassislar kompleks yondashuvni ko'proq "siyosiy" va "sotsiologik" tavsifga ega degan fikrni ilgari surishadi. [13]

Yoshlarga doir olib boriladigan har qanday tadqiqot "yoshlar" tushunchasining mohiyatini ochib berish, mazkur ijtimoiy guruhning turlarini (shahar va qishloqda yashovchi, ishchilar, o'quvchilar va h.k.) aniqlash, yoshlar yashab, mehnat qilayotgan ijtimoiy muhitning holatini hisobga olishni talab etadi.

FALSAFA-SIYOSAT

Mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun, yoshlarga uchta o'zaro bog'liq darajada yondashish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

birinchidan ijtimoiy fenomen sifatida umummetodologik darajada yondashish;

ikkinchidan, maxsus-nazariy darajada yondashish, ya'ni ularni alohida ijtimoiy-demografik guruh deb hisoblash, xulqi, yashash tarzining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, boylik mo'ljallarini o'rganish;

uchinchidan, empirik, ya'ni sotsiologik tadqiqotlarning dalillari va ko'rsatkichlariga asoslangan holda yondashishdir.

Yoshlarni mazkur yondashuvlar asosida o'rganish, ularga ma'lum (16-30 yoshgacha bo'lgan) yoshdagi aholi kategoriyasi sifatida qarabgina qolmay, balki o'ziga xos ijtimoiy-demografik guruh sifatida qarashga ham imkon beradi. Mazkur guruh, bir tomondan, o'ziga xos psixologik-jismoniy xususiyatlari, ijtimoiy mexanizmi, hayotga kirib borishi bilan bog'liq alohida faoliyatni olib borsa, ikkinchi tomondan, submadaniyat, jamiyat ijtimoiy tabaqalanishiga bog'liq ichki differentsiyalash jarayonlari bilan tavsiflanadi. Demak, yoshlarga ilmiy yondashish, ularga jamiyatning o'ziga xos guruhi sifatida qarashni, hayotning turli jihatlarini va xususiyatlarini kompleks o'rganishni talab etadi.

Yoshlarga oid masalalar ta'lim-tarbiya, axloq-odob, madaniyat, sog'liqni saqlash, ijtimoiy munosabatlar, siyosat, huquq, din, bo'sh vaqtni tashkil qilish, oila, mehnat, sport bilan chambarchas bog'liqdir. Shuning uchun ilmiy adabiyotlarda yoshlar bilan bog'liq mazkur muammolar jamiyat tizimida (ya'ni jamiyat asosiy tavsifi, tizimli o'zgarishlar va siljishlar bilan uyg'un holda) ham o'ziga xos ijtimoiy guruh sifatida differensial tarzda o'rganiladi. [14]

Shundan kelib chiqib ta'kidlash joizki, bugungi kunda O'zbekiston yoshlari bilan bog'liq muammolarning asosiy qismi jamiyatda ro'y berayotgan ob'ektiv jarayonlar (ya'ni urbanizatsiya, ishsizlik, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarining yo'qolishi, tug'ilishning kamayishi va h.k.) bilan bog'liqdir. Bugun yoshlarning jamiyatda o'z o'rinlarini aniqlashi va topishi eski qarashlar, qadriyatlarining so'nishi hamda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi davrida amalga oshmoqda. Shuning uchun ham yoshlar orasida agressiya, loqaydlik, ekstremistik kayfiyatlar, sarosimaga tushish holatlari ham uchramoqda. Yoshlar – ijtimoiy munosabatlarning sub'ektlaridir. Shu tufayli ham ular ob'ektiv ijtimoiy munosabatlarning ishtirokchisiga aylanganlar.

Keyingi yillarda turli ijtimoiy muammolar bilan bog'liq umummilliy yondashuvlarning o'zgarib borishi bilan yosh avlodni har tomonlama yaxlit bir butunlikda o'rganish, ularga jamiyatning muayyan organik sub'ekti sifatida qarash zarurati tug'ildi. Bugungi kunda olimlar yoshlar bilan bog'liq muammolarni tahlil va tadqiq etishda o'ziga xos psixologik xususiyatlar va tavsiflarga ega bo'lgan, jamiyatdagi egallagan ijtimoiy mavqei ni mazkur jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy taraqqiyotidan kelib chiqqan holda belgilash va ularga alohida demografik guruh sifatida qarashga harakat qilmoqdalar. [15]

Yoshlarga oid davlat siyosati ma'naviy-mafkuraviy mexanizmlarini takomillashtirishda kompleks yondashuvning ahamiyatini yoshlarni har tomonlama, ya'ni tizimli, vertikal va gorizontal tartibda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarda ko'ramiz.

Jumladan, bunda yoshlarning yosh toifalari, ularning turli ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-mafkuraviy tadbirlarda ishtiroki darajasi, qamrab olinish ko'rsatkichlari, yoshlar tashkilotlarining davlat hokimiyati organlari bilan o'zaro aloqalari kabi masalalar o'z aksini topishi kerak. Zero, kompleks yondashuv yuqorida ta'kidlanganidek, ushbu jarayon bilan bog'liq barcha omillarni (ichki va tashqi) va ularning yakuniy natijaga ta'siri nuqtai nazaridan tahlil qilishni taqozo etadi.

Xususan, bu omillar quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin: tuzilmaviy omillar – vazifa va vakolatlarning taqsimlanishi, boshqaruvning ierarxik tarkibi, axborot texnologiyalarining joriy qilinishi va boshqalar;

xodimlar salohiyati va uni rivojlantirish, shuningdek, xodimlarni rag'batlantirish tizimi;

fan va amaliyotning uyg'unlashuvi, innovatsion yondashuvning mavjudligi va hokazo.

Ushbu omillar ko'proq ichki tavsifga ega bo'lib, bundan tashqari tashqi omillarni, jumladan tendensiyalar va ularning o'zgarib borishini ham hisobga olish talab etiladi. [16]

Yoshlar bilan ishlashda kompleks yondashuvning xarakteridan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, ushbu yondashuv yagona, yaxlit yoshlar siyosatini amalga oshirishni taqozo etadi. Ayni vaqtda, bunday yondashuv ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, iqtisodiy chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi va yaqin, o'rta istiqbolga mo'ljallanadi.

Xususan, ijtimoiy sohada bu ta'lim-tarbiya, bandlik, yosh avlod salomatligini muhofaza qilish, yosh oilalarga turli imtiyozlar berish va boshqa ijtimoiy jihatdan himoya qilish kabi masalalarni qamrab oladi. Siyosiy sohada esa yoshlarni mamlakatning siyosiy tadbir va jarayonlarida faol jalb qilish, ularning

ishtiroki darajasini muntazam tarzda oshirib borish yo'nalishlarida aks etadi. Huquqiy sohada barkamol avlodning huquqiy savodxonligini oshirish, ularni huquqiy jihatdan himoya qilish, huquqiy yordam olishni kafolatlash, yoshlar o'rtasidagi turli huquqbuzarliklar, ularning kelib chiqish sabablari va hokazolar. O'z navbatida, iqtisodiy yo'nalishda, avvalo, yoshlar orasida tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish, buning uchun ularga zarur shart- sharoitlarni yaratib berish kabi masalalar dolzarb hisoblanadi.

Kompleks yondashuvning ahamiyatli jihatlaridan biri — bu muayyan hududdagi yoshlar to'g'risida yaxlit manzarani aks ettirishidir.

Kompleks yondashuvning indikatorlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

yoshlarning turli ijtimoiy-siyosiy tadbirlarga jalb qilinganlik holati;

yoshlarning davlat va jamiyat ishlaridagi ishtiroki darajasi;

yoshlarning tadbirkorlikka jalb qilinganlik holati;

yoshlar orasida bandlik ko'rsatkichlari, shu jumladan tashqi migratsiyadagi yoshlar soni;

yoshlarning kasb-hunarni egallashga bo'lgan intilishi ko'rsatkichlari; yoshlar tashkilotlari soni (davlat va nodavlat shakldagi);

yoshlar tashkilotlarining davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan o'zaro aloqalari samaradorligi ko'rsatkichlari (miqdor va sifat);

yoshlar bilan bog'liq turli loyihalar va unda ishtirok etayotgan yoshlar soni (yo'nalishlar kesimida);

yoshlarning ilm-fanga bo'lgan qiziqishi (ilmiy-tadqiqot muassasalarida faoliyat yuritayotgan va ilmiy darajaga ega yoshlar soni);

yoshlar o'rtasida huquqbuzarlik holatlari ko'rsatkichlari; yoshlarning oliy ta'lim bilan qamrab olinganlik ko'rsatkichlari; yoshlar o'rtasida savodxonlik darajasi;

yoshlarning sport va san'at yo'nalishlaridagi ishtiroki darajasi;

yosh oilalar soni va ularga davlat tomonidan ko'rsatilayotgan yordam hajmi;

yosh oilalar orasida ajrimlar ko'rsatkichlari;

yoshlar orasida o'lim ko'rsatkichlari, shu jumladan suitsid holatlari; yoshlarning turli kasalliklar bilan zararlanish ko'rsatkichlari; yoshlarning turli salbiy illatlarga berilishi (narkomaniya, diniy mutassiblik va b.).

Kompleks yondashuvning yana bir ahamiyatli jihatlaridan biri – bu mavjud yoki ehtimoliy muammolarni qisman (epizodik yoki fragmentar) emas, balki bir-birini o'zaro to'ldiruvchi chora-tadbirlar, harakatlar asosida hal qilishdan iborat. [17]

Shu bilan birga, kompleks yondashuv yoshlar masalalarini ularning real ehtiyoj va manfaatlaridan kelib chiqqan holda hal qilish imkonini beradi. Bu borada ushbu yondashuvning izchil xarakterga ega ekanligi namoyon bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, yoshlar masalasining samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. [18]

Yoshlar bilan ishlashda ma'naviy-mafkuraviy ishlarni takomillashtirishda kompleks yondashuvning quyidagi asosiy mexanizmlarini ajratish mumkin.

Birinchidan, yoshlarning o'z salohiyatini amalga oshirishi uchun imkoniyatlar yaratish.

Bunda yoshlarni o'zini o'zi boshqarishi uchun turli tuzilmalarning tashkil qilinishi nazarda tutiladi, masalan, yoshlar parlamenti, yoshlar hukumati, yoshlar kengashi, yoshlar ijtimoiy palatasi, talaba va o'quvchilarning o'zini o'zi boshqarish kengashlari va h.k. Bundan tashqari, turli ma'naviy-mafkuraviy, madaniy tadbirlarni ham muntazam tarzda uyushtirib turish mumkin (davra suhbatlari, seminar-treninglar, debatlar, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari vakillari bilan uchrashuvlar, turli yo'nalishlarda tanlovlar o'tkazish);

Ikkinchidan, yoshlarni ijodiy faoliyatga jalb qilish.

Bu o'z ichiga turli festivallar, ijodiy kechalar, san'at bayramlari, milliy an'analar va urf-odatlarini targ'ib qilish va rivojlantirish, intellektual tanlovlar, yoshlarni madaniy hayotga integratsiya qilish bilan bog'liq jarayonlarni o'z ichiga oladi;

Uchinchidan, yoshlarning, shu jumladan davlat ko'magiga muhtoj yoshlarning ijtimoiylashuvi bilan bog'liq mexanizmlar.

Bunda yoshlarning mustaqil ravishda o'z yo'lini topishi, hayotga ijtimoiy moslashuvi, imkoniyati cheklangan yoki boshqa turdagi yordamga muhtoj yoshlar uchun zarur sharoitlar yaratish, yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish, yosh oilalarni har tomonlama qo'llab quvvatlash, yoshlar orasida bag'rikenglik an'analarini targ'ib qilish va umuman ijtimoiy himoya bilan bog'liq chora-tadbirlar muhim hisoblanadi;

To'rtinchidan, yoshlar orasida siyosiy va huquqiy savodxonlikni oshirish bilan bog'liq mexanizmlar.

FALSAFA-SIYOSAT

Bunda, yoshlarni davlat va jamiyat ishida faol ishtirokini ta'minlash, ularning davlat hokimiyati va boshqaruv idoralarida faoliyat yuritayotganlarga nisbatan ulushini oshirish, siyosiy va huquqiy yo'nalishlarda turli intellektual tanlovlar, ko'rsatuvlar, maqolalar tayyorlash, ta'lim muassasalarida, ayniqsa maktabda huquqiy savodxonlik darajasini oshirish, masalan, huquqshunoslik darslarini ko'paytirish orqali va h.k.;

Beshinchidan, yoshlar orasida oila instituti rolini mustahqamlash mexanizmi.

Bunda oilaga bo'lgan hurmatni oshirish, oila qadriyatlarini mustahkamlash, ota-ona, aka-uka, opa-singil va boshqa qarindoshlar o'rtasida mehr-oqibat aloqalarini rivojlantirish bo'yicha turli chora-tadbirlarni kuchaytirish, oilalar o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish va boshqalar;

Oltinchidan, yoshlar o'rtasida sport va atrof-muhitga ijobiy munosabatni mustahkamlash mexanizmi.

Bunda yoshlarni sog'lom turmush tarzini olib borishga o'rgatish, ularni sportga keng jalb qilish, respublika va xalqaro sport musobaqalarida g'olib bo'lgan sportchilarni namuna sifatida targ'ibot-tashviqot ishlarini muntazam tarzda yo'lga qo'yish. Shuningdek, yoshlarda atrof-muhit va tabiatni asrash, unga oqilona munosabatda bo'lish va boshqa tegishli ishlarni amalga oshirish;

Yettinchidan, yoshlar orasida huquqbuzarlikni kamaytirish va oldini olish mexanizmi.

Bunda huquqbuzarlik bilan bog'liq profilaktik chora-tadbirlar manzilligi va samaradorligini ta'minlash, sodir etilgan huquqbuzarlikning sabablarini o'rganish, tahlil qilish, OAVlarda bu borada muntazam ravishda chiqishlar qilib turish kabi choralar nazarda tutiladi.

Bundan ko'rinadiki, yoshlar siyosatini amalga oshirishda jamiyat va davlatning o'zaro uzviy, kompleks va tizimli hamkorligi ta'minlanishi lozim.

Ayni vaqtda yoshlar siyosatini izchil va samarali amalga oshirishda ularni ijtimoiy jihatdan ta'minlash va himoya qilish masalalari ustuvor ahamiyat kasb etadi. Zero, ushbu masala yoshlarni jismoniy, ahloqiy, intellektual jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllanishlarida muhim yo'nalishdir.

Mazkur vazifalarni amalga oshirishda yoshlarda bunday xavflar haqidagi bilim va ko'nikmalarni kengaytirish, eng muhimi, yosh avlodimizning ma'naviy baquvatligini shakllantirishga karatilgan ishlarni olib borish katta ahamiyatga ega. Yuksak darajadagi ma'naviyat, ma'rifat yo'li bilan bunday salbiy holatlardan yoshlarimizni asrash hamda jamiyat uchun munosib bo'lgan kishilarga aylantirish mumkin bo'ladi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, "Ma'naviyatni muayyan bir avlod yangidan yaratmaydi, ma'naviy merosga tayanadi. Shu bilan birga, uni o'zlashtirishga insonparvarlik, adolat nuqtai nazaridan yondashib rivojlantiradi". [19]

Shuni ham ta'kidlash kerakki, yoshlar bilan ishlashning kompleks yondashuvi ayrim muammolarni samarali hal qilish imkonini beradi.

Xususan:

a) chekka hududlarda yashayotgan yoshlar muammolarini bartaraf etish va kelgusida ularning kelib chiqishining oldini olish;

b) yoshlar bilan ishlashda muhim bo'g'in hisoblanuvchi infratuzilmalarni shakllantirish;

v) yoshlarni zarur axborot bilan ta'minlash hamda ular uchun zamonaviy axborot platformalarini yaratish;

g) yoshlarda aniq va mustahkam fuqarolik hamda jamiyat va davlat ravnaqi uchun daxldorlik tuyg'usini shakllantirish;

d) yoshlar bilan ishlashga institutsional jihatdan yondashish;

ye) yoshlarning ehtiyoj va manfaatlarini doimiy ravishda tizimli o'rganib borish hamda shuning asosida qaror qabul qilish.

XULOSA

Umuman olganda, yoshlarga oid davlat siyosatini izchil va samarali amalga oshirishda kompleks yondashuvning ahamiyati quyidagilarda ko'rinadi. Birinchidan, yoshlar bilan ishlashda turli "bo'shliq"lar vujudga kelishining oldini oladi. Bunda jamiyat va davlatning o'zaro hamkorligi ta'minlanadi, ya'ni davlat yoshlarga o'z salohiyati va imkoniyatlaridan to'la foydalanishi uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratib berishi, yoshlar, o'z navbatida, muayyan ijtimoiy vazifalarni bajarishi lozim;

Ikkinchidan, ta'kidlash lozimki, kompleks yondashuv ko'proq nazariy xarakterga ega. O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, amaliyotda doim ham buni amalga oshirish qiyinchilik tug'diradi. Bu borada muayyan hududdagi davlat boshqaruv tizimi, taraqqiyot bosqichi hamda fuqarolarning davlatga va o'z salohiyatiga bo'lgan ishonchi muhim ahamiyat kasb etadi;

Uchinchidan, kompleks yondashuv yoshlarning turli "og'riqli" nuqtalarini aniqlashga yordam beradi. Shu bilan birga, bu borada aniq maqsadli siyosatni amalga oshirishga ham imkon yaratadi.

Zero, yoshlar turli subguruhlardan tashkil topgan va doimiy tarzda o'zgaruvchan xarakterga ega. Xususan, yoshlarni bir nechta guruhlariga bo'lgan holda, masalan, o'quvchilar, talabalar, yosh oilalar, ishsiz yoshlar, imkoniyati cheklangan yoshlar, yordamga muhtoj yoshlar, huquqbuzarlik sodir qilgan yoshlar va hokazo;

To'rtinchidan, kompleks yondashuv yoshlarga oid davlat siyosati borasida aniq bir strategik dastur ishlab chiqilishni taqozo etadi. Bunday dastur yaqin, o'rta va uzoq istiqbolga mo'ljallangan ssenariylardan iborat bo'lishi lozim. Bu, o'z navbatida, yoshlar masalasida yagona davlat siyosati hamda aniq tizimni talab etadi. Boshqacha aytganda, yoshlar bilan "hamma birdaniga va doim" emas, balki muayyan bir tashkilot shug'ullanishi maqsadga muvofiq;

Beshinchidan, yoshlar tashkilotlarining butunlay davlat hokimiyati institutlari "qaramog'ida" qolmasligi, aksincha, ko'proq nodavlat notijorat tashkilotlari sifatida faoliyat yuritishi maqsadga muvofiq. Bu borada ular jamiyat va davlat o'rtasida o'ziga xos "ko'priq" sifatida yuzaga chiqadi. Bundan tashqari, davlat idoralarida kuzatiladigan byurokratik to'siqlarning yo'qligi nodavlat yoshlar tashkilotlari faoliyati samaradorligini ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Molodej v organizatsii OON / Bibliotekadokumentov OON, svyazannyx s molodejyu//un.org/ youth.html.
2. Ilinskiy I. Будущее России i molodej: k novoy konsepsii molodejnoj politiki //ilinskiy.ru
3. Chirun S. Molodyojnaya politika v situatsii postmoderna: modeli, mexanizmy, riski. Monografiya. – M.: DirektMedia, 2019. – S. 25
4. Jo'raev N. Yangilanish konsepsiyasi: yaratilishi, evolyusiyasi va amaliyoti. – T.: Ma'naviyat, 2002. – B. 43
5. "Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish strategiyasi: mavjud vaziyat va rivojlantirish istiqbollari" mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiyasi maqolalar to'plami. T: "Tafakkur-Bo'stoni". 2019. 489 b.
6. Zelenin A. Kriterialnaya model otsenki effektivnosti molodejnoj politiki. // Polzunovskiy vestnik. Moskva. 2006, № 3.S.90-96.
7. Denstad F. Youth Policy Manual. Council of Europe Publishing. // pjp-eu. coe. int/ documents/ 42128013/ 47261809/ YP_Manual_pub. pdf/ 7b17e1e6-e8b6-4041-902e-3b3ad0973c45
8. "Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish strategiyasi: mavjud vaziyat va rivojlantirish istiqbollari" mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiyasi maqolalar to'plami.T: "Tafakkur-Bo'stoni". 2019. 173 b.
9. Xolmaxmatov A. O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish mexanizmlari va texnologiyalari. siyosiy.f.f.dok. (PhD) diss. avtoref. 2019. 14 b.
10. Jumayev R. Politicheskaya sistema Respubliki Uzbekistan:stanovlenie i razvitie. –T.: Fan, 1996. S. 130.
11. Politicheskaya sotsiologiya / pod red. J.T.Тошкенко. M.: Yunitidata, 2012. S.222.
12. Politicheskaya sotsiologiya / pod red. J.T.Тошкенко. M.: Yuniti-data, 2002. S.222.
13. G.V. Lavrentev, N.B. Lavrenteva Metodologicheskij analiz sistemnogo i kompleksnogo podxodov i razrabotka elektronnoy uchebno-metodicheskogo kompleksa // Pedagogika i psixologiya, S. 16-20
14. Sotsiologiya molodyoji/ Pod red. V.T.Lisovskogo. -SPb: GU, 2016; Kon I.S. Sotsiologiya molodyoji// V kn.: Kratkiy slovar po sotsiologii. -M.: Nauka,2018 va boshq.
15. Mudrik A.Sotsializatsiya i "smutnoe vremya". M.,1991; Logua R. Molodyoj i gynok: problemy sotsializatsii.-M., 1992; Pershutkin S. Sotsiologiya molodyoji, molodyojnaya politika i sotsialnaya rabota s molodyoyju.-Novosibirsk,1995; Psixologo-pedagogicheskie problemy sotsializatsiiilichnosti / Otv.red.S.N.Silina.-Shadrinsk, 2017.
16. Zelenkova M. Molodejnaya politika v rossii i zarubejnyx stranax // Sovremennyye problemy nauki i obrazovaniya. – 2012. – № 6.;URL: <http://www.science-education.ru/ru/article/view?id=7305> (data obrasheniya: 13.08.2020).
17. Kon I. S. Sotsiologiya molodeji. V kn.: Kratkiy slovar po sotsiologii. – Moskva, 1988.
18. Kon I. S. Sotsiologiya molodeji. V kn.: Kratkiy slovar po sotsiologii. – Moskva, 1988.
19. Shermuhammedov S. Istiqlol quyoshi. Toshkent- «Ma'rifat-madadkor», 2002 yil. 29-b.

(Taqrizchi: I.Siddiqov – Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD))